



## TERMINOLOGICAL CHARACTERISTICS OF STOP SIGNS WIDELY DISTRIBUTED IN OUR COUNTRY

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10141564>

**J.T. Nematov**

*Tashkent Islamic Institute named after Imam Bukhari, head of the "Tahfizul-Qur'an" department*

### ABSTRACT

This article describes the terms used in Mushaf. At the same time, through the form-structural classification of terms related to waqf, theoretical conclusions are given about their formation and formation.

#### Key words

obligatory waqf, absolute waqf, permissible waqf, mujawwaz waqf, murakhas waqf

## YURTIMIZDA KENG YOYILGAN MUS'HAFLARDAGI TO'XTASH ALOMATLARINING TERMINOLOGIK XUSUSIYATLARI

**J.T.Nematov**

*Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti, "Tahfizul-Qur'on" kafedrasi mudiri*

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Mus'hafda ishlatilgan terminlarning tavsifi haqida so'z yuritilgan. Shu bilan birga, vaqfga oid terminlarning shakliy-struktur tasnifi orqali ularning shakllanishi, hosil bo'lishi haqida nazariy xulosalar berilgan.

#### Kalit so'zlar

lozim vaqf, mutlaq vaqf, joiz vaqf, mujavvaz vaqf, muraxxas vaqf

Qadimgi mus'haflar xuddi harakat, oyat belgilari, juz'larga taqsimlanganlik alomatlaridan holi bo'lgani kabi vaqf alomatlaridan ham holi bo'lgan. Keyinchalik harflarga nuqta qo'yish, harakat(unli tovush)lar qo'yilishiga ehtiyoj sezildi. Ushbu belgilar Ibn Bavvobning 391/1000 yilda Bag'dodda yozgan mus'haf[1]da berilmaganiga qaraganda mus'hafda ishlatilgan alomatlarning eng so'ngisi vaqf alomatlari bo'lgan degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Ulamolar oldinlari vaqf alomatlariga e'tibor bermaganlar. Buni Abu Bakr Anboriy(327/938), Abu Ja'far Nahhos(338/949) va Abu Amr Doniy(444/1052)larning asarlaridan xulosa qilishimiz mumkin. Lekin keyin kelgan



ulamolar bunga e'tibor qaratib, mus'haflarga turli belgilar bilan ifodalashni kiritishga tamal toshi qo'yib berdilar. Bunga dastlabki jonbozlik ko'rsatgan ulamolardan eng mashhuri Abu Abdulloh Muhammad Tayfur Sajovandiy(560/1164). U vaqf turlarini besh qismga bo'lgan:

1. Lozim vaqf: Ikki tomondan ham bog'lansa maqsad va ma'noga futur yetadi;

2. Mutlaq vaqf: To'xtab, keyingisidan boshlash afzal bo'ladi, ma'no ham chiroyli chiqadi;

3. Joiz vaqf: To'xtash ham mumkin, bog'lash ham mumkin;

4. Mujavvaz vaqf: To'xtash joiz, lekin bog'lash afzal;

5. Muraxxas vaqf: O'zidan oldingi jumlaga bog'liq. Biroq jumla uzunligi sabab nafas yetmagani bois ruxsat etilgan vaqf. Bunda ortga qaytish shart emas, chunki ma'no tushunarli chiqqan bo'ladi.

Bulardan boshqasida vaqf joiz bo'lmaydi.

Sajovandiy yuqoridaq vaqf o'rirlari uchun belgilar ishlab chiqqani haqida asarining kirish qismida quyidagilarni aytib o'tgan: "Hozir vaqfni Qur'ondag'i suralar tartibiga ko'ra bayon qilishga kirishamiz. Demak, vaqf joiz bo'limgan o'ringa Ҳ belgisini qo'yamiz. Vaqf qilinadigan har bir oyatning oxiri bo'lgan o'rinda yengillik bo'lishi uchun to'xtalib o'tirmay, o'tib ketaveramiz. Ayrim qavllarda vaqf joiz emas deyilgan, biroq vaqf durust bo'lgan oyatlarga ehtiyoj yuzasidan Ҳ belgisini qo'yamiz. To'xtash lozim bo'lganiga Ҳ bilan ifodalaymiz. Mutlaq vaqfni Ҳ bilan, joizni Ҳ bilan, mujavvazni Ҳ bilan va muraxxasni Ҳ belgisi bilan bildiramiz" [2].

Natijada, uning nazdida belgilar yettita bo'ldi.

Izlanishlar davomida Abul Alo Attor (569/1173) o'zining "al-hodiy fi-l-maqoti'i va-l-mabodiy" nomli asarida vaqfning mashhur turlarini Sajovandiydan oldinroq ishlatganini ko'rishimiz mumkin. Masalan, tom vaqfga Ҳ, kofiy vaqfga Ҳ, hasan vaqfga Ҳ belgisini ishlatgan[3].

Ibn Hajar Asqaloniy(923/1517) esa "latoif al-ishorot" kitobida vaqfni besh qismga ajratib: "komil, tom, kofiy, hasan va noqis vaqflarga ushbu Ҳ, Ҳ, Ҳ, Ҳ, Ҳ harflarini belgi qilib qo'ydim", degan[4].

Sajovandiyning vaqflari va belgilari mashhur bo'lib, keng yoyilganini va mus'haflarda ishlatilganini ko'rishimiz mumkin. Bu haqda Muhammad ibn Mahmud Samarqandiy ham Sajovandiyning kitobi haqida so'z yuritib "bu kitob shu zamonda juda mashhur bo'ldi", degan[5].

O'sha davrdagi mus'haflarni o'rganilsa ham Samarqandiyning so'zlarini tasdiqlaydigan ma'lumotlarni uchratish mumkin. Masalan, 635/1237 yilda yozilgan mus'haf[6] da Sajovandiyning vaqf alomatlari qo'yilganligini uchratish



mumkin. Sajovandiyning mukammal vaqf belgilari 1000/1591 yilda yozilgan mus'hafda berilgan. Fotiha surasini misol qilib oladigan bo'lsak, Sajovandiyning "vaqf va ibtido" kitobida: لا المُسْتَقِيمُ طَسْتَعِينُ طَدَالَّدِينِ ، لا الرَّجِيمُ ، لا da نَسْتَعِينُ طَدَالَّدِينِ ، لا da المُسْتَقِيمُ طَسْتَعِينُ طَدَالَّدِينِ ، لا da عَلَيْهِمُ الْأَعْنَتُ da لا [7] deb berilgan. Aynan shu belgilar yuqorida o'tgan mus'hafda[8] aynan shu o'rnlarda berilganini ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek, Sajovandiyning vaqflari Hofiz Usmon (1110/1698)[9]ning mus'hafida ham, Hofiz Muhammad Amin Rushdiyning 1236/1820 yilda yozilgan mus'hafi[10]da ham uchraydi. Ya'ni, har ikkala mus'hafning varaqlarini Sajovandiyning kitobi bilan solishtirish orqali shunday xulosaga kelish mumkin.

Sajovandiy mamnu' vaqflarni va unga qo'yiladigan ӯ belgisini haddan ortiq ko'paytirib yuborganligini, keyingi kelgan xattotlar ham unga ergashganlarini ko'p ulamolar ta'kidlaydilar va mubolag'a qilib yuborgan deydilar. Jumladan, imom Jazariy(833/1429v.): "Vaqf imomlarining falon joyda to'xtash mumkinmas, degan so'zlarining ma'nosi to'xtagan joydan davom etish mumkin emas, deganidir. Sajovandiy ham bu borada ӯ alomatini ko'paytirib yuborgan. Uning nazdida bu yerda vaqf yo'q degan ma'no tushuniladi. Vaholanki, uning belgilagan joylarining ko'pida vaqf joiz, ko'p o'rnlarida hatto keyinidan boshlash ham joizdir... ӯ belgisini vaqf joizmas deb emas, balki, vaqf joiz, keyinidan boshlash joiz emas, deb tushunish lozim" [11], deydi.

Hozirda zamonaviy mus'haflarda vaqf o'rnlari va alomatlari oldingilardan farq qilib tursada, Sajovandiyning vaqflariga murojat qilmasdan iloji yo'q. Yurtimizda keng yoyilgan mus'haflardan eng mashhuri "Madina mus'hafi" deyiladi. Ushbu mus'hafning birinchi nashrida vaqf alomatlari oltita deb belgilangan bo'lsa, ikkinchi nashrida "mamnu' vaqf" dan voz kechilib, alomatlar beshta deb belgilangan[12]. Bu mus'haflardagi alomatlar:

1. ӯ - mamnu' vaqf. Ikkinci nashrda bu belgi berilmagan.
2. م - lozim vaqf.
3. ج - joiz vaqf. Ikki holat ham tenglikda joiz.
4. صلى - joiz vaqf. Lekin ulash afzal.
5. لى - joiz ulash. Lekin to'xtash afzal.
6. .. - Ikkisidan birida to'xtash joiz. Har ikkisida to'xtash joiz emas.

Mus'haflar ichida eng tadqiq qilingan va qat'iy qoidalarga rioya qilingan mus'haf 1337/1918 yilda Misr qorilar shayxi qori Muhammad Ali Xalaf Husayniy(1357/1938) tomonidan yozilgan "amiriyy mus'hafi" deb tanilgan mus'hafdir. Bu mus'haf 1342/1923 yili Qohirada mutaxassis hay'at a'zolarining qayta-qayta tekshiruvlaridan so'ng ularning nazoratlari ostida chop etilgan. Bundagi vaqf alomatlari ham yuqoridagi oltita belgidan iborat[13]. Zamonaviy mus'haflar Sajovandiyga suyangan bo'lsa ham ikki ish bilan ajralib turadi.



Birinchisi, ayrim vaqf belgilardan voz kechilgan; ikkinchisi, ko'p belgilar berilmasdan soddalashtirilgan. Masalan, "fotiha" surasi misolida ko'rilsa, "amiriyy" mus'hafida ham "madina" mus'hafida ham vaqf alomatlari berilmagan. Bu bilan oyatlar oxirida to'xtashni ta'kidlash bo'lgan[14].

Zamonamizning ayrim tadqiqotchilarida chop etilgan mus'haflardagi alomatlar haqida mulohazalar bo'lib turadi. Shuni ta'kidlash lozimki, vaqflarning asosi ijтиҳод hisobланади. Ya'ni, vaqflar ijтиҳод bilan qo'yilgan ekan, unga xilof chiquvchi ham bo'lishi tabiiy. Zero, hammaning ijтиҳоди harxil bo'lishi joiz. Lekin shart shuki, ilm bilan bo'lishi kerak, xohlagan joyida g'arib to'xtashlar bilan ma'noga xalal yetkazadigan ilmsizlarcha, tavakkal bo'lmasligi lozim.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Qur'on o'quvchiga mus'haflarda berilgan vaqf alomatlariga rioya qilishga haris bo'lishlari lozim. Zero, bu belgilarni vaqf ulamolari oyat ma'nolarini chuqur tahlil qilganlaridan so'ng qo'yganlar. Ayniqsa, mus'haf taniqli, mutaxassis, ilmiy hay'at tomonidan chop etilgan bo'lsa. Qori jumla nihoyasiga yetmasidan to'xtashdan saqlansin. Chunki ma'no shunga bog'liq bo'ladi. Oyat yoki jumla oxiriga yetmasidan to'xtashga majbur bo'lsa, sal oldiroqdan, tinglovchiga ma'no ravshan bo'ladigan joydan davom ettirsin. Shunda qiroatdan asl maqsad - tadabbur hosil bo'ladi. Alloh ta'olo aytganki: "(Ey Muhammad s.a.v., ushbu Qur'on barcha odamlar) oyatlarini tafakkur qilishlari va aql egalari eslatma-ibrat olishlari uchun Biz sizga nozil qilgan bir muborak Kitobdir" (Sod surasi: 29).

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Qo'lyozma Dublindagi Chester Bitti kutubxonasida №K16 raqami ostida saqlanmoqda
2. Sajovandiy. Vaqf va ibrido.B. – 123 – 124
3. Turkiyadagi Sulaymoiniya kutubxonasida asarning qo'lyozmasidan nusxa(fotokopiya) №69 Lolaliy raqami ostida saqlanmoqda.
4. Ibn Hajar Asqaloniy. Latoif al-ishorot. J – 1, B – 264.
5. Shamsiddin Muhammad ibn Mahmud Hamadoniy. Ruh al-murid. B – 216.
6. Moris kalligrafiya to'plami. 88-tasma.
7. Sajovandiy. Vaqf va ibrido. B – 125.
8. Moris kalligrafiya to'plami. 94-tasma.
9. Hofiz Usmon ibn Ali Qustantiniy - Usmoniyarning mohir, turk xattotlaridan biri. Yigirma beshta mus'haf yozgan. 1110/1591 yili Kostantinopol(Istanbul) da vafot etgan./Qarang: Muhammad Tohir Kurdiy. Tarix al-xat al-arabiyy va odobuhu. B – 339.



10. Iroq vaqf vazirligi mus'haf chop etayotganda shu mus'hafni asos qilib olgan.
11. Muhammad ibn Jazariy. An-Nashr fil qiroat al-ashr. Al-vuquf va-l-ibtido bobi, 1-j, 234-B.
12. Doktor Musoid Tayyor. Muharrar fi ulumi-l-Qur'on. Qur'onshunoslik markazi. Jidda. 2008. B – 293.
13. Doktor Musoid Tayyor. Muharrar fi ulumi-l-Qur'on. Qur'onshunoslik markazi. Jidda. 2008. B – 293
14. Doktor G'onim Qadduriy Hamad. Sharhu muqaddima al-Jazariya. Bayrut. Darul G'avsoniy. 3-tab'a, 2019. B. – 574.